Turizm sohasini ekonometrik modellashda qo'llaniladigan ekonometrik usullar va amaliy imkoniyatlar	801
Shukurov Ikrom Abdurashitovich	
Sanoat tarmoqlarida investitsiyalar strukturasining iqtisodiy samaradorligi va innovatsiyalarni rag'batlantirish.....	807
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	
Mintaqa ziyorat turizmi samaradorligini oshirishda ekonometrik modellardan foydalanish.....	812
O'rinova Durdona Botir qizi	
Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni pest (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik omillar) tahlili.....	816
Israilov Rustam Ibragimovich	
Qazib olish sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishda muammolar va salbiy omillar: tahlil va zamonaviy yondashuvlar	825
Abduraxmanov Davron Burxanjonovich	
O'zbekistonning milliy merosi boyliklaridan turizmga foydalanish yo'llari	830
Samarov Xonqul Qahhorovich	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investision resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar	835
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy o'sishni indikativ baholash metodologiyasi.....	841
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	



Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....	847
Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvoxid bdurazzoq o'g'li	
Механизмы устойчивого управления малым и средним бизнесом в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.....	852
Зокирова Фарангиз Тулкуновна	
Yashil bank xizmatlari va uni joriy etish bilan bog'liq muammolar.....	862
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	



YASHIL BANK XIZMATLARI VA UNI JORIY ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi

Bank ishi kafedrası dotsenti, DSc.

Email: m.mahmudova0112@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-5777-6606>

Annotatsiya: Yashil bank, yashil moliyalashtirish va barqaror moliya kabi sohalar so'nggi yillardan beri ekologik xavfsiz va yashil iqtisodiyotni yaratish uchun muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqot moliyaviy sektorning bank amaliyotida ekologik barqarorlikni integratsiyalashuviga e'tibor qaratgan holda yashil bank xizmatlari va ularni joriy etishdagi muammolarga qaratilgan. Yashil bank amaliyotlarini o'rgangan holda, xorij tajribalari asosida tijorat banklarining yashil bank amaliyotidagi ba'zi muammolari bo'yicha ba'zi tavsiyalar bilan ham muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: yashil bank, yashil moliyalashtirish, barqaror iqtisodiyot, yashil loyihalar.

Abstract: Green banking, green financing and sustainable finance have become important factors in recent years for creating an environmentally safe and green economy. This study focuses on the integration of environmental sustainability into banking practices in the financial sector, with particular attention to green banking services and the challenges of their implementation. By examining green banking practices, the research also discusses some challenges faced by commercial banks in adopting such practices, along with recommendations based on international experiences.

Key words: green banking, green financing, sustainable economy, green projects.

Аннотация: Зелёный банкинг, зелёное финансирование и устойчивые финансы в последние годы стали одними из важных факторов для создания экологически безопасной и «зелёной» экономики. Данное исследование посвящено интеграции принципов экологической устойчивости в банковскую практику финансового сектора, с акцентом на зелёные банковские услуги и проблемы их внедрения. Изучая практику зелёного банкинга, в работе также рассматриваются некоторые проблемы коммерческих банков в этой сфере и приводятся рекомендации на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: зелёный банкинг, зелёное финансирование, устойчивая экономика, зелёные проекты.

KIRISH

Bugungi kunda global hamjamiyat duch kelayotgan dolzarb muammolar qatorida ekologik boshqaruv, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va global iqlim isishi jarayonlari alohida o'rin tutmoqda. Iqlim o'zgarishi, tez-tez yuz berayotgan tabiiy ofatlar va ekologik muvozanatning buzilishi ko'pincha aholining ekologik muammolarga nisbatan yetarlicha xabardor emasligi va institutsional darajada zarur choralar ko'rilmayotgani bilan izohlanadi. Shu boisdan ham, barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta'minlash yo'lida har bir fuqaro, davlat institutlari hamda moliyaviy tashkilotlarning yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishga faol hissa qo'shishi talab etiladi.

Bank tizimi bevosita atrof-muhitga zarar yetkazuvchi jarayonlarni amalga oshirmasa-da, u kreditlash va moliyaviy resurslarni taqsimlash orqali ekologik degradatsiyani kuchaytiruvchi yoki aksincha, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi faoliyatlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega. Iste'molchilarning ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabining ortib borayotgani sharoitida banklarning atrof-muhitga e'tibor



qaratishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ularning yashil korporativ imidjini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil bankchilikni joriy etish jarayoni qator institutsional va amaliy muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Jumladan, mijozlar tomonidan yangi moliyaviy mahsulotlarni qabul qilish darajasi, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash, qo'shimcha xarajatlar hamda xodimlarning professional salohiyatini oshirish zarurati ushbu jarayonning asosiy to'siqlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil bankchilikni rivojlantirish moliyaviy barqarorlik va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtiruvchi, keng ko'lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlarni talab qiladigan dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda banklarning barqaror rivojlanishga erishishdagi o'rni hamda iqlim xavfi muammosiga ularning munosabatini o'rganish katta e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish eng ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Atrof-muhit omillarini bank boshqaruvi va amaliyotlariga integratsiya qilishni o'z ichiga olgan "yashil bank" konsepsiyasi esa katta ilmiy qiziqish uyg'otmoqda¹. Ushbu tushuncha ilk bor 2003-yilda G'arb mamlakatlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan konsepsiya asosida qabul qilingan bo'lib², uni ko'pincha barqaror bankchilik yoki "raqamli bank" deb atalgan tushunchaning davomi sifatida qo'llashgan³. Agar raqamli bank mijozlar samarali xizmat ko'rsatish maqsadida internetdan foydalanishni anglatadigan bo'lsa, yashil bank bundan ham kengroq bo'lib, biznesda barqarorlik jihatlarini o'z ichiga oladi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bank amaliyotlaridan voz kechadi⁴. Yashil bank nafaqat raqamli bankchilikni, balki ekologik xavflarni kamaytirishga, energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishni targ'ib qilishga hamda uzoq muddatli moliyaviy hamda ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan barqaror iqtisodiy faoliyat va operatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Umuman olganda, bank sektori tabiatga zarar keltiruvchi soha sifatida qaralmaydi; biroq banklar bevosita yoki bilvosita atrof-muhitga chiqayotgan uglerod izini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Sababi yuridik va jismoniy shaxslarga kredit ajratish va moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanuvchi banklar ekologik izga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yashil bankchilik BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) orasidagi 13-maqсад — iqlim bo'yicha harakatda nazarda tutilganidek, salbiy ekologik ta'sirlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bank faoliyati ekologik jihatdan samarali tashkil etilsa, ular iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishda katta ro'l o'ynaydi, ya'ni iqlimni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarni ilgari suradi va bu orqali BMTning 13-maqsadiga erishishda sezilarli hissa qo'sha oladi. Yashil bank konsepsiyasi, shuningdek, banklarni ekologik jihatdan samarali siyosatlarini ishlab chiqishga undaydi, masalan: uglerod chiqindilarini kamaytirish, yashillikka o'tish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash kabi amaliyotlarini joriy etish shular jumlasidandir.

Shunday qilib, yashil bankchilik bank faoliyatini ekologik barqarorlik tamoyillariga moslashtirish bilan birga, milliy rivojlanish maqsadlariga erishishda, bank tizimi sifatini oshirishda va sanoat rivojlanishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik muammolarni yumshatishda ham muhim ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot asosan ochiq manbalar va mavjud adabiyotlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, yashil bank xizmatlari va ularni joriy etishdagi muammolar bo'yicha xalqaro tajribalar, ilmiy maqolalarda e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, shuningdek, turli internet manbalardan foydalanildi. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda yashil bank xizmatlari va uni joriy etishdagi muammolar taqqoslash, tahlil va sintez, guruhlash usullaridan foydalanilgan holda o'rganilgan, so'ngra ularning O'zbekiston sharoitiga mos jihatlari bo'yicha takliflar keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil bank mahsulotlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda yashil bank amaliyotlari bo'yicha eng ko'p uchraydigan faoliyatlarini quyidagilar deb aytishimiz mumkin:

- 1 Chen, Y.-C.; Lin, T.-Y.; Chiu, Y.-H.; Yang, C.-I. An exploration of operational efficiency, market efficiency, and sustainable development in the banking industry. Corp. Soc. Responsib. Environ. Manag. 2024, 31, 4819–4848
- 2 Risal, N.; Joshi, S.K. Measuring Green Banking Practices on Bank's Environmental Performance: Empirical Evidence from Kathmandu valley. J. Bus. Soc. Sci. 2018,2, 44–56
- 3 Anjalidevi, S.; Sreedevi, R.S.; Harikrishnan, R.; Shivdas, A. Green Banking Awareness: A Study on Tier 3 Locations—With Special Reference to Kerala. In Lecture Notes in Networks and Systems (LNNS); Springer: Singapore, 2024; Volume 997, pp. 581–597.
- 4 Begum, N.; Bhuiyan, M.M.I.; Hashmi, N.; Sadhu, N.K.; Imran, M.A.; Rahid, A.O.; Ahmed, I. Green banking: An indispensable step for the bank to save our environment. Am. Int. J. Bus. Manag. Stud. 2021,3, 1–11.

1-jadval. Eng ko'p uchraydigan yashil bank faoliyatlari⁵

№	Yashil bank faoliyatlari	Faoliyat ichida eng ko'p uchraydigan bank mahsulotlari
1	Raqamli bank ishi	Qog'ozsiz tranzaksiyalar Onlayn va mobil bank ishi Yashil moliyalashtirishni kuzatish uchun sun'iy intellekt va blokcheyn asosidagi barqarorlik ilovalari Raqamli hisobotlar va elektron ko'chirmalar (e-statementlar) Bankomatlar
2	Yashil kreditlar	Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari Elektr transport vositalarini xarid qilishni moliyalashtirish Energiya tejamkor uylar uchun yashil ipoteka kreditlari Yashil o'tish bilan bog'liq investitsiya va loyihalar uchun subsidiyaga asoslangan kreditlar Ekologik qulay uylarni modernizatsiya qilish uchun moliyaviy imtiyozlar taqdim etish
3	Yashil xizmatlar	Shaxsiy ESG kalkulyatorlari va boshqaruvi Yashil investitsiyalar bilan bog'langan jamg'armalar Barqaror turmush tarzini qo'llab-quvvatlash uchun mukofotlar yoki keshbek taklif etish Barqarorlikka yo'naltirilgan investitsiya portfellarini taklif etish Uglerod kreditlari savdosini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash
4	Yashil infrastrukturalar	Quyosh energiyasida ishlovchi bankomatlar Aqlli yoritish tizimlari Energiya tejamkor binolar Bank binolarida elektrotransport zaryadlovchi qurilmalarni o'rnatish Yashil ma'lumot markazlariga investitsiya kiritish va boshqalar

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, yashil bank faoliyatida asosiy 4ta yo'nalish mavjuddir va raqamli bankchilik taklif etib kelayotgan mahsulotlar eng ko'p uchrashligini sezishimiz mumkin, sababi faoliyat yurituvchi barcha tijorat banklari o'zlarining mobil ilovlarini taqdim etgan holda barqarorlikka hissa qo'shib kelishmoqda. Bu esa nafaqat mijozlar qoniqishini oshiradi, balki bank faoliyatining samaradorligini ham kuchaytirdi.

Yashil kreditlar ham eng ko'p uchraydigan faoliyat sifatida belgilanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yashil kreditlarning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish, elektrotransport vositalarini xarid qilishni moliyalashtirish, energiya tejamkor uylar uchun yashil ipoteka kreditlari, yashil o'tish bilan bog'liq investitsiya va loyihalar uchun subsidiyalangan kreditlar hamda uglerod kreditlari savdosi jarayonlarini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Banklar uchun qayd etilgan muhim yashil xizmatlarga esa quyidagilar kiradi: mobil ilovalarda shaxsiy kalkulyatorlarni joriy etish orqali mijozlarga ularning turmush tarzidan kelib chiqadigan karbon chiqindilarini hisoblash imkoniyatini yaratish, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlar uchun mukofotlar yoki keshbeklar taqdim etish, yashil investitsiyalar bilan bog'langan jamg'arma imkoniyatlarini taqdim etish hamda barqarorlikka yo'naltirilgan investitsiya portfellarini taklif etish va boshqalar.

Yashil bankchilik barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni taqdim etish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ya'ni qayta tiklanuvchi energiya, toza texnologiyalar va ekologik qulay infratuzilmalarga yo'naltirilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratadi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoqlarida mehnat bozorini mustahkamlashdan tashqari, ushbu transformatsiya jarayoni atrof-muhitni asrashga undaydi.

Barqarorlik amaliyotlarini joriy etish orqali banklar jamiyat orasida yaxshi brend imidjiga va ishonchga ega bo'ladi. Atrof-muhitga e'tiborli mijozlar o'z turmush tarziga mos keladigan banklarni afzal ko'radilar, bu esa ularning bankka nisbatan sodiqligini oshiradi. Bundan tashqari, kuchli yashil bankchilik pozitsiyasi banklarga bozor sharoitida o'zini strategik jihatdan mustahkam joylashuv imkonini beradi hamda sodiq mijozlar va investorlarni jalb qiladi.

⁵ https://www.researchgate.net/publication/391765267_Green_Banking_Practices_Opportunities_and_Challenges_for_Banks_A_Systematic_Review#pfc ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



O'z afzalliklariga qaramay, yashil bankchilikni joriy etishda ko'plab muammolar mavjud. Barqaror bankchilikning rivojlanishi moliyaviy, huquqiy va savodxonlik bilan bog'liq to'siqlarini yengib o'tishni talab qiladi. Yashil bankchilik istiqbolli yo'nalish bo'lsa-da, uni keng miqyosda joriy etishni cheklab turgan turli muammolar mavjud⁶:

Boshlang'ich investitsiya xarajatlarining yuqoriligi

Yashil bankchilik katta miqdorda moliyaviy sarmoya talab qiladi. Banklar yangi texnologiyalarga, yashil infratuzilmalarga va xodimlarni tayyorlashga mablag' kiritishi zarur. Ushbu yuqori boshlang'ich xarajatlar banklarni yashil bank amaliyotlarini joriy etishdan to'xtatishi mumkin.

Ma'lumot va savodxonlik yetishmasligi

Ko'pgina bank xizmatlaridan foydalanuvchilar va biznes subyektlari yashil bankchilik bilan bog'liq afzalliklarni to'liq tushunmaydi. Savodxonlik bo'lmasa, ushbu xizmatlarni qabul qilish sekin kechadi va barqaror moliyaviy mahsulotlarga talab cheklangan bo'lib qoladi. Shu sababli banklar savodxonlik va ma'lumot beruvchi dasturlar haqida tashviqot ishlarini amalga oshirishi zarur.

Tartibga solishdagi cheklovlar

Yashil bankchilik bilan bog'liq qonun-qoidalar har bir mamlakatda farq qiladi, bu esa muvofiqlikni ta'minlashni murakkablashtiradi. Siyosatlar turlicha bo'lgani uchun transmilliy banklar o'rtasida amaliyotda nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Bu esa institutlarning barqarorlik choralarga to'liq o'tishiga to'sqinlik qiladi.

Ekologik ta'sirni baholash qiyinligi

Yashil bankchilikdagi innovatsiyalar keltirib chiqaradigan ekologik foydalarni baholash murakkabdir. Barqarorlik natijalarini o'lchash uchun universal standart mavjud emas. Aniq mezonlarsiz banklarning yashil investitsiyalarga oid strategiyalarini baholashi va takomillashtirishi juda mushkul bo'ladi.

Yashil yuvish (greenwashing)

Bank va boshqa tashkilotlar o'z mahsulotlari yoki xizmatlarining qanchalik barqarorligini yolg'on yoki bo'rttirib ko'rsatishi orqali iste'molchilarni ularning atrof-muhitga qanchalik foydali ekanligiga ishonitirib qo'yishi holatidir. Google Cloud uchun The Harris Poll (2023)⁷ tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 16 ta mamlakatdagi rahbarlarning 59 foizi o'z kompaniyasining barqarorlik faoliyatini oshirib ko'rsatgani yoki noto'g'ri talqin qilganini, ya'ni yashil yuvish bilan shug'ullanganini tan olgan.

Yashil bankchilikni amaliyotga joriy etishda Yevropa tajribasida ham qator qiyinchiliklar kuzatiladi. Xususan, banklarning dekarbonizatsiya jarayonida duch keladigan muammolari uch asosiy toifaga bo'linadi: moliyalashtirish imkoniyati (bankability), an'anaviy faoliyatdan yashil biznes modeliga o'tishdagi moslashuv (business model) va tartibga solish me'yorlari (regulation). Shu sababli, yashil bank faoliyatini keng yo'lga qo'yishda ushbu omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Banklarning dekarbonizatsiya jarayonidagi asosiy qiyinchiliklari⁸

Qiyinchiliklar	Tavsiflar	Ta'sirlar
Moliyalashtirish imkoniyati (Bankability)	Ba'zi sohalar, masalan, yuqori issiqxona gazlari (GHG) chiqaruvchi tarmoqlar, banklar tomonidan moliyalashtiriladigan sohalar sifatida qaralmaydi. Shuning uchun ular kredit olish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin.	Ushbu sohalaridagi kompaniyalar o'z faoliyatlarini moliyalashtirish uchun kreditlardan foydalana olmaydilar. Bu esa ularning yashil iqtisodiyotga o'tishini qiyinlashtiradi.
Biznes modeli	Banklar o'z biznes modellarini qayta ko'rib chiqishi kerak. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishdagi yangi risklarni hisobga olishlari zarur. Sababi yashil loyihalar uzoq muddatli va ko'proq kapital talab qiladi.	Banklarning risklarni boshqarish yondashuvlari o'zgaradi va an'anaviy qisqa muddatli kreditlash uslublaridan uzoqlashish kuzatiladi.
Tartibga solish me'yorlari (regulation)	Moliyaviy tartibga soluvchilar tomonidan qo'yiladigan yangi talablar: • ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) standartlariga rioya qilish majburiyati. • Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.	• Yangi talablarga rioya qilish banklar uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. • Yashil mahsulotlar narxi yuqoriligi sababli ular raqobatda qiyinlashadi. • Kompaniyalar yuqori GHG chiqaruvchi faoliyatdan voz kechishga majbur bo'lishi mumkin.

⁶ <https://paylinedata.com/blog/green-banking>

⁷ Google Cloud. (2023). 2023 Google Cloud Sustainability Survey. Google. https://services.google.com/fh/files/misc/google_cloud_cxo_sustainability_survey_final_2023.pdf

⁸ https://sfcp-network.de/wp-content/uploads/2025/05/SuFi_The-green-banking-gap-how-bankability-business-models-and-regulations-challenge-banks-decarbonisation.pdf ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Jadvaldan ko'rinadiki, banklar yashil iqtisodiyotga o'tishda uch asosiy muammo bilan yuzlashadi: moliyalashtirish imkoniyati, biznes modelini moslashtirish va regulyator talablari.

Birinchi toifa banklarning daromadlarni maksimal darajaga yetkazish va xatarlarni minimal darajaga tushirishga qaratilgan strukturaviy bosimlari bilan bog'liq bo'lib, bu ularning investitsiyani moliyalashtirishga yaroqli (bankable) deb baholashlarida namoyon bo'ladi. An'anaviy faoliyatda, biror korxona yoki loyiha bank tomonidan "mijoz o'z vaqtida va kelishilgan foiz stavkasida qarzni qaytarish imkoniga ega" deb hisoblangan taqdirdagina moliyalashtirishga yaroqli deb topiladi. Bank xodimlari qarz oluvchilarda kutilayotgan pul tushumlarini qanchalik aniq va qaysi muddatlarda olishini bilishga, shuningdek, ularning qarzni o'z vaqtida qaytarish imkoniyatini baholashga katta e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, ular qarz oluvchilarda yetarli miqdorda o'z mablag'lari bor-yo'qligi yoki qarzni o'z vaqtida qaytarishni ta'minlash uchun yetarli va sifatli garov taqdim eta olish-olmasligini ham o'rganadilar.

Ikkinchi toifa banklarning yashil kreditlarini oshirish yoki yuqori issiqxona gazlari chiqindilariga ega faoliyatlarni kreditlashni kamaytirishdagi chegaralari bilan bog'liq bo'lib, bu ularning biznes modeli xususiyatlaridan kelib chiqadi. Buning oqibatida, so'nggi o'n yilliklarda banklarning biznes modeli o'zgarishi natijasida korporativ, ayniqsa loyiha asosidagi kreditlash ularning faoliyatida muhim ahamiyatini yo'qota boshladi. Ikkinchidan, banklar kredit berishda, kreditlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ularning portfellarini tezda dekarbonizatsiya qilishiga to'sqinlik qila boshladi.

Uchinchi toifa esa regulyativ cheklovlar bilan bog'liq bo'lib, ular banklarning yashil faoliyatlarni moliyalashtirish imkoniyatlariga to'sqinlik qiladi va yuqori darajada issiqxona gazi chiqaruvchi faoliyatlarni bartaraf etishga tartibga soluvchi tizimning yetishmasligiga olib keladi.

Bu qiyinchiliklar qisqa muddatli to'siq bo'lsada, banklarning uzoq muddatli innovatsion, barqaror va ekologik mas'uliyatli tizimini yaratishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, globallashuv va raqamli transformatsiya davrida tijorat banklari faoliyatida barqarorlik omili tobora muhim strategik yo'nalishga aylanib borayotganligini inobatga olgan holda, an'anaviy bank xizmatlari mijozlarning faqat moliyaviy ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmay, balki ularning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini ham qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bank mijozlariga yashil xaridlarni amalga oshirishda yordam berishi, ularni moliyaviy savodxonlikka, oqilona byudjet boshqaruviga va resurslarni tejashga undashi nafaqat individual darajadagi farovonlikni oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Banklarning bunday tashabbuslari mijozlar uchun ham, moliya institutlari uchun ham ikki tomonlama foyda keltiradi. Bir tomondan, ekologik jihatdan mas'uliyatli xaridlar va investitsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, banklar uchun yangi moliyaviy mahsulotlarni (yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, energiya samaradorligi dasturlari) rivojlantirish orqali biznes samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chen, Y.-C.; Lin, T.-Y.; Chiu, Y.-H.; Yang, C.-I. An exploration of operational efficiency, market efficiency, and sustainable development in the banking industry. Corp. Soc. Responsib. Environ. Manag. 2024, 31, 4819–4848
2. Risal, N.; Joshi, S.K. Measuring Green Banking Practices on Bank's Environmental Performance: Empirical Evidence from Kathmandu valley. J. Bus. Soc. Sci. 2018, 2, 44–56
3. Anjalidevi, S.; Sreedevi, R.S.; Harikrishnan, R.; Shivdas, A. Green Banking Awareness: A Study on Tier 3 Locations—With Special Reference to Kerala. In Lecture Notes in Networks and Systems (LNNS); Springer: Singapore, 2024; Volume 997, pp. 581–597.
4. Begum, N.; Bhuiyan, M.M.I.; Hashmi, N.; Sadhu, N.K.; Imran, M.A.; Rahid, A.O.; Ahmed, I. Green banking: An indispensable step for the bank to save our environment. Am. Int. J. Bus. Manag. Stud. 2021, 3, 1–11.
5. https://www.researchgate.net/publication/391765267_Green_Banking_Practices_Opportunities_and_Challenges_for_Banks_A_Systematic_Review#pfc
6. <https://paylinedata.com/blog/green-banking>
7. Google Cloud. (2023). 2023 Google Cloud Sustainability Survey. Google. https://services.google.com/fh/files/misc/google_cloud_cxo_sustainability_survey_final_2023.pdf
8. https://sfcp-network.de/wp-content/uploads/2025/05/SuFi_The-green-banking-gap-how-bankability-business-models-and-regulations-challenge-banks-decarbonisation.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
